

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI	86-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025)	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL	141-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI"	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE"	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB
TALQINLARI..... 211-215

Rustamova Madina
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza Tulqinovna
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI 226-232

Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL 233-241

Quvvatova Shaxlo Choriyevna
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

Elmuratova Zamira Xodjamuratovna
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

Umarova Xolisxon Nomoz qizi
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK
UCHUN JAVOGBARLIK DAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

Аминова Наргиза
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ 270-277

Amirov Agzamxon Aktamovich
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

Kabilov Sardor Asrolovich
JINOIY JAVOGBARLIK DAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

Received: 16 March 2026

Accepted: 01 April 2026

Published: 15 April 2026

Article / Original Paper

THE ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF SA'ID AL-DIN AL-FARGHANI'S TEACHING

Asliddin Shavkatovich Obidov

Associate Professor of the Department of Social Sciences at Alfraganus University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Abstract. This article analyzes the interrelation between the ontological and epistemological foundations in the teachings of Sa'id al-Din al-Farghani. Based on the introductions and terminological explanations found in Mashariq al-Darari and Muntaha al-Madarik, the study elucidates the conceptual system of such notions as wujud, tajalli, zahir-batin, jam-farq, and fano-baqo'. The findings demonstrate that, in al-Farghani's doctrine, the idea of wahdat al-wujud is interpreted as an integral metaphysical vision expressing the unity of being and knowledge.

Keywords: Sa'id al-Din al-Farghani, ontological foundations, epistemological foundations, wahdat al-wujud, wujud, tajalli, ma'rifa, kashf, fano-baqo.

SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR

Obidov Asliddin Shavkatovich

Alfraganus universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0000-0002-9848-2364>

E-mail: aslidin.obidov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Said ad-Din al-Farg'oniya ta'limotida ontologik va gnoseologik asoslarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. "Mashariq al-darari" va "Muntaha al-madarik"dagi muqaddima hamda istilohiy izohlar asosida "wujud", "tajalli", "zahir-batin", "jam-farq", "fano-baqo" tushunchalarining konseptual tizimi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Al-Farg'oniya "wahdat al-wujud" borliq va bilish birligini ifodalovchi yaxlit metafizik qarash sifatida talqin qilinishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Said ad-Din al-Farg'oniya, ontologik asoslar, gnoseologik asoslar, wahdat al-wujud, wujud, tajalli, ma'rifa, kashf, fano-baqo.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N23>

Kirish. XIII asr oxiri va XIV asr boshlaridagi tasavvufiy tafakkur tarixida Said ad-Din al-Farg'oniya Ibn al-'Arabiya maktabining nazariy merosini sharhlash, tartibga solish va keyingi davrlarga yetkazishda muhim o'rin egallaydi. Uning Mashariq al-darari hamda Muntaha al-madarik asarlari Ibn al-Fariq qasidasiga yozilgan sharh sifatida tanilgan bo'lsa-da, mazmun qatlamida ular borliq martabalari, ilohiy tajalliy, ruhiy sayr va ma'rifiy kamolot haqidagi yaxlit qarashni mujassam etadi. Shu jihatdan al-Farg'oniya merosi tasavvufiy sharhchilik tarixining oddiy namunasi sifatida emas, Akbariy an'anadagi ontologik va gnoseologik muammolarni izchil ifodalagan yirik ilmiy meros sifatida o'rganilishi lozim.

Al-Fargʻoniy taʼlimotining markazida borliq masalasini qalb, idrok, kashf va ruhiy tajriba orqali ochiladigan haqiqat sifatida talqin qilinadi. Shu asnoda uning qarashlari Qunaviy muhitining bilish haqidagi umumiy yoʻnalishi bilan tutashadi. Richard Todd ushbu muhitni “intuitsiya hosilalari bilan aql natijalari oʻrtasida muvofiqlik qaror toptirish” tarzida taʼriflaydi. [1, Richard Todd - 61-bet]. Bu baho al-Fargʻoniy taʼlimotida gnoseologiya maʼrifat, mushahada va ruhiy tajribada kamol topadigan idrok shakli sifatida qaralishini anglashga xizmat qiladi.

Al-Fargʻoniy ontologiyasida wahdat va kathrat, zahir va baʼtin, jamʼ va farq bir-biridan uzilgan tushunchalar tarzida talqin qilinmaydi. Ularning barchasi yagona haqiqatning turli darajadagi namoyonlarini anglatadi. William C. Chittick al-Fargʻoniyning *Muntaha al-madarik* asaridagi ushbu istilohiy qoʻllanishni tahlil qilib, uni voqelikni koʻrish holati bilan bogʻlaydi. Bu fikrni “u Muntaha al-madarik asarida wahdat al-wujud iborasini voqelikni koʻrish holatini ifodalash uchun qoʻllagan” tarzida ifodalanadi [2, William C. Chittick - 48-bet]. Bu yerda wahdat al-wujud ontologik hukm bilangina cheklanmaydi, balki ruhiy sayr davomida hosil boʻladigan idrok darajasi bilan bogʻlanadi.

Mazkur yondashuv al-Fargʻoniyda borliq va bilishning ichki birligini koʻrsatadi. U koinot tuzilishini sharhlash chogʻida Muhammadiy nur, Ruh, Aql va ilohiy tajalliy oʻrtasidagi nisbatlarni ham tahlil qiladi. Mohammed Rustom bu qatlamni yoritib, al-Fargʻoniy “Muhammadiy nur yoki Muhammadiy ruhni Qalam va Aql bilan ayniyatda koʻradi” deganidir [3, Mohammed Rustom - 543-bet]. Bu fikr al-Fargʻoniy taʼlimotida ontologik tuzilma bilan maʼrifiy idrok oʻrtasida chuqur bogʻliqlik borligini koʻrsatadi. Shu bilan birga u bilishning oliy manbai sifatida Muhammadiy haqiqat gʻoyasining oʻrnini ham ochib beradi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada al-Fargʻoniy merosidagi ontologik va gnoseologik asoslarning oʻzaro tutashuvi uning asosiy asarlari doirasida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Said ad-Din al-Fargʻoniy taʼlimotiga oid ilmiy adabiyotlar koʻzdan kechirilganda, tadqiqotchilar eʼtibori asosan uning Ibn al-Faridga yozgan sharhlari, Qunaviy maktabi bilan bogʻliqligi hamda istilohiy tizimining shakllanishiga qaratilgani koʻrinadi. Giuseppe Scattolinning tadqiqoti bu yoʻnalishda muhim ilmiy oʻrin tutadi. U al-Fargʻoniy sharhini Akbariy anʼanadagi tayanch matnlardan biri sifatida baholab, “al-Fargʻoniy sharhi Ibn al-ʼArabiy tasavvufining mumtoz tayanch manbasi sifatida doimo alohida eʼtibor qozongan” [4, Giuseppe Scattolin - 35-bet]. Bu yondashuv al-Fargʻoniy asarining tarixiy nufuzini yoritadi va uning sharhi keyingi tasavvufiy tafakkur hamda tasavvufiy-falsafiy talqinlar uchun mustahkam zamin yaratganini anglatadi. Shu sabab al-Fargʻoniy merosi borliq, tajalliy va ruhiy kamol masalalarini izchil nazariy asosda yoritgan muhim manba sifatida qadrlanadi.

Oliver Leaman al-Fargʻoniy faoliyatining ilmiy qimmatini Ibn al-ʼArabiy ilgari surgan murakkab falsafiy gʻoyalarni bir butun holda bogʻlab, ularni tasavvufiy tajriba tili orqali tushuntirib bergani bilan izohlaydi. Shu maʼnoda, “Fargʻoniyning qilgan ishi muhim edi, chunki u Ibn al-ʼArabiy ilgari surgan murakkab falsafiy gʻoyalarni bir butun holda bogʻlab berdi” [5, Oliver Leaman - 98-bet]. Ushbu fikr al-Fargʻoniy merosining sharhlovchilik doirasidan kengroq ilmiy salohiyatga ega ekanini koʻrsatadi. Chunki uning qarashlarida ontologik masalalar bilishning ichki yoʻli, maʼrifat, qalbiy idrok va ruhiy sayr bilan uzviy tutashgan holda namoyon boʻladi. Shu jihatdan al-Fargʻoniy murakkab metafizik qarashlarni maʼrifiy tajriba va tasavvufiy idrok bilan bogʻlay olgan mutafakkir sifatida gavdalanadi.

William C. Chittickning *Encyclopaedia Iranica* dagi maqolasi al-Fargʻoniy merosining yana bir muhim tomonini yoritadi. William C. Chittick forsiy va arabiy sharhlarni falsafiy

tasavvuf terminologiyasining shakllanish jarayonida alohida ahamiyatga ega manbalar sifatida baholab, “Har ikki sharh falsafiy tasavvufda keyinchalik asosiy ifodalarga aylangan terminologiyani tushunish uchun juda muhim qo‘llanmadir” deb yozadi [6, William C. Chittick - 255-bet]. Bu fikr al-Farg‘oniy asarlarining ilmiy qimmatini yanada ravshanlashtiradi. Uning sharhlari Ibn al-Fariq matniga bitilgan izohlar bilan kifoyalanmay, borliq darajalari, ilohiy sifatlari, ruhiy va hissiy olam, inson kamoloti kabi masalalarni o‘zaro bog‘liq holda talqin qiladi. Shu sabab al-Farg‘oniy merosi tasavvufiy-falsafiy til va istilohlar tizimining qaror topishida muhim o‘rin egallaydi hamda ontologik va gnoseologik asoslar birligini anglash uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

Mavjud tadqiqotlar al-Farg‘oniy merosining ilmiy qiymatini aniq ko‘rsatadi, lekin asosiy urg‘u ko‘proq sharhchilik usuli, Akbariy maktabdagi o‘rni va istilohiy apparatiga berilgan. Ontologik qarashlar bilan bilish masalalarining ichki aloqasi ko‘pincha umumiy tarzda eslatiladi. Shu bois Said ad-Din al-Farg‘oniy ta‘limotida ontologik va gnoseologik asoslarning o‘zaro tutashuvini alohida tahlil qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot Said ad-Din al-Farg‘oniy ta‘limotidagi ontologik va gnoseologik asoslarni yoritishda tarixiy-falsafiy kuzatuv, matnshunoslik, istilohiy-semantik tahlil, talqin usuli hamda qiyosiy o‘qishni birgalikda qo‘llaydi. Tahlil markaziga al-Farg‘oniyning “Mashariq al-darari” va “Muntaha al-madarik” asarlaridagi muqaddima, istilohiy sharhlar hamda wujud, tajalliy, zahir, ba‘tin, jam‘, farq, fana‘, baqa‘, ma‘rifa, kashf, mabda‘ va ma‘ad bilan bog‘liq matn bo‘laklari olindi. Tadqiqot jarayonida e‘tibor alohida tushunchalarni sanashga qaratilmadi, balki ularning o‘zaro aloqasi, ma‘no qatlamlari va nazariy mazmunini yoritishga yo‘naltirildi. Toshihiko Izutsu bu usulni “Ibn al-‘Arabiyy dunyoqarashining ontologik asosini tashkil etuvchi tayanch tushunchalarni tahliliy o‘rganish” deb izohlaydi [7, Toshihiko Izutsu - 3-bet]. Shu metod al-Farg‘oniy matnlarini ham izchil o‘qishga yordam beradi, zero uning ontologik qarashlari tayanch istilohlar tizimi orqali namoyon bo‘ladi.

Metodologik jihatdan tadqiqot zohir va ba‘tin qatlamlarini yaxlit holda ko‘rib chiqadi. Al-Farg‘oniy matnida istilohning tashqi ma‘nosi, tasavvufiy qo‘llanish doirasi va ruhiy tajriba bilan bog‘langan ichki mazmuni yagona talqin chizig‘ida tahlil etiladi. Shu bois matnni sharhlashda lug‘aviy ma‘no bilan cheklanib qolmay, uning botiniy va ma‘rifiy qatlamlari ham ochib berildi. John Renard bu yondashuvni “Tasavvufiy talqin odatda zohiriy ko‘rinish bilan botiniy ma‘no o‘rtasidagi asosiy farqni belgilaydi” deya izohlaydi [8, John Renard - 66-bet]. Ana shu nuqtadan kelib chiqib, al-Farg‘oniydagi zohir, ba‘tin, jam‘, farq kabi tushunchalar ma‘rifiy sayrning o‘zaro bog‘langan bosqichlari sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotning gnoseologik qismi ma‘rifa, kashf, mushahada, fana‘ va baqa‘ singari tushunchalarni ruhiy bilishning darajalari sifatida talqin etishga tayandi. Bu yerda bilish oddiy tasavvur, mantiqiy hukm va tashqi xabar bilan cheklanib qolmay, insonning butun vujudi bilan bog‘liq ichki idrok darajasiga yuksaladi. Seyyed Hossein Nasr qarashlarida gnoseologik tahlil markazida ma‘rifatning mavjudlikni to‘liq qamrab oluvchi xususiyati turadi. Shu nuqtai nazardan, “ro‘yobga chiqqan irfon, ya‘ni muqaddas tabiatga ega bo‘lgan bilimning amalga oshishi biluvchining butun mavjudligini qamrab oladi” [9, Seyyed Hossein Nasr - 136-bet]. Mazkur yondashuv al-Farg‘oniydagi kashf va ma‘rifani faqat nazariy bilim doirasida tushunmasdan, uni ontologik tayanch hamda ruhiy kamol bilan bog‘liq yaxlit idrok shakli sifatida ko‘rishga imkon beradi. Ana shu qarash metodologik mezon sifatida olinib, al-Farg‘oniy

matnlarida bilishning borliq asoslari bilan tutashuvi va uning ruhiy takomil jarayonidagi o'zni birgalikda kuzatildi.

Mazkur asoslar negizida tadqiqotda bir necha amaliy qadam qo'llandi. Avvalo, al-Farg'oniy asarlaridagi tayanch istilohlar ajratib olindi. So'ng bu istilohlarning matn ichidagi o'zaro bog'lanishi kuzatildi. Keyin ularning borliq haqidagi qarash bilan bilish haqidagi qarashni qanday birlashtirishi aniqlandi. Shundan keyin sharh matnidagi kosmologik bayon, insonning ruhiy sayri va ma'rifiy yetilishi bir umumiy tizim doirasida o'qildi. Natijada al-Farg'oniy ta'limotidagi ontologik asoslar bilan gnoseologik asoslar bir-birini to'ldiruvchi yaxlit tasavvufiy-metafizik tuzilma sifatida talqin qilindi.

Natijalar va muhokama. Tahlil natijasida al-Farg'oniy ta'limotining markazida hazrati jam'i vujudiy turishi ayon bo'ldi. Mazkur darajada salik borliqni alohida-alohida mustaqil narsalar majmui sifatida emas, yagona vujudning turli ko'rinishlari sifatida idrok etadi. Al-Farg'oniy bu holatni shunday ifodalaydi, "Men ushbu jam'iy vujud martabasiga yetganimda, borliqni bittadan ortiq ko'rmadim. Martabalarda alohida ko'rinadigan har bir mavjudlikni esa o'sha yagona vujudning shu'lasini va tarmog'i deb bildim" [10, Sa'id ad-Din al-Farg'oniy – 81-bet]. Mazkur qarashda al-Farg'oniy vahdat fikri quruq nazariy xulosa shaklida emasligini ko'rsatadi. U ruhiy tajriba, qalbning ochilishi va o'zlik pardalarining susayishi bilan bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Tahlilning keyingi natijasi shuni ko'rsatdiki, al-Farg'oniy yagona vujud haqidagi qarashni ko'plikni inkor qiladigan usulda bayon etmaydi. Unga ko'ra, borliq tuzilishida qarama-qarshi ko'rinadigan tomonlar o'zaro bog'langan holda mavjud bo'ladi. Sachiko Murata al-Farg'oniy qarashini quyidagicha izohlaydi, "Qisqacha aytganda, Farg'oniy ikki qo'lni mavjudlikning ikki asosiy tarkibiy quvvati deb tushunadi. Ular qaysi sifat ustun kelishiga qarab turli nuqtayi nazardan talqin qilinadi" [11, Sachiko Murata – 109-bet]. Murata ushbu kuchlarni birlik va ko'plik, zarurat va imkon, tanzih va tashbih kabi o'zaro bog'liq nisbatlar doirasida yoritadi. Shu asosda al-Farg'oniy ontologiyasi voqelikning ichki tartibi, muvozanati va martabalar tizimini ochib beradi. Mazkur jihat uning gnoseologik qarashlarini ham yoritadi, chunki haqiqatni anglash voqelik bosqichlari o'rtasidagi nozik aloqalarni fahmlash bilan chambarchas bog'lanadi.

Muhokama jarayonida al-Farg'oniy ta'limotining yana bir muhim jihati aniq ko'rindi. Unda bilish masalasi kosmologik tartib va ruhiy vositachilik haqidagi qarashlar bilan chambarchas tutashadi. Ma'rifat qalbiy tajribadan boshlanib, Muhammadiy haqiqat bilan bog'langan oliy idrok darajasiga yuksaladi. Mohammed Rustom bu fikrni quyidagicha bayon qiladi: "Sa'id ad-Din Farg'oniy Muhammadiy nur yoki Muhammadiy ruhni Qalam va Aql bilan ayniy munosabatda ko'radi. Muhammadiy nur, ruh va haqiqat bir mazmunga jamlanadi" [12, Mohammed Rustom – 543-bet]. Bu yondashuv al-Farg'oniy bilish ko'lamini yanada kengroq ochadi. Bilish koinotning yaralish tartibi, ilohiy tajalliy oqimi va inson qalbining qabul salohiyati bilan bog'langan holda sharhlanadi. Shu tariqa al-Farg'oniy qarashlarida ontologiya va gnoseologiya yagona metafizik tuzilmaning o'zaro bog'langan ikki qirrasini sifatida namoyon bo'ladi.

Umumiy muhokama shuni ko'rsatdiki, al-Farg'oniy ta'limotida borliqning birligi, martabalar tafovuti, qalbiy kashf, Muhammadiy haqiqat va ruhiy kamol o'rtasida uzviy bog'lanish mavjud. Shu sabab al-Farg'oniy merosini faqat sharh an'anasi doirasida baholash yetarli emas. Uning matnlarida borliq haqidagi tasavvur insonning bilish imkoniyati, ruhiy

poklanishi va ilohiy haqiqatni qabul qilish darajasi bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Mazkur natijalar Said ad-Din al-Farg‘oniy ta‘limotida ontologik va gnoseologik asoslar o‘zaro tutashgan yaxlit tuzilmani tashkil etishini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Said ad-Din al-Farg‘oniy ta‘limotida ontologik va gnoseologik asoslar o‘zaro uzviy bog‘langan yagona metafizik tizimni tashkil etishini ko‘rsatdi. Uning qarashlarida borliq masalasi mavjudotlar tartibi va ilohiy tajalliy darajalarini yoritish bilangina cheklanib qolmay, insonning haqiqatni anglash imkoniyati, qalbiy poklanishi va ma‘rifiy kamoloti bilan chambarchas tutashadi. Shu bois al-Farg‘oniyda wujud, tajalliy, zahir–batin, jam‘–farq, fana‘–baqa‘ kabi tushunchalar mustaqil nazariy birliklar tarzida emas, haqiqatni idrok etishning ichki bosqichlarini ifodalovchi, bir-biri bilan bog‘liq tushunchalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil yana shuni ko‘rsatdiki, al-Farg‘oniy vahdat al-wujud g‘oyasini soddalashtirilgan mavhum formula darajasida talqin qilmaydi, uni ruhiy tajriba va ma‘rifiy yetilish bilan uzviy aloqada sharhlaydi. Uning nazarida borliqning birligi ko‘plikni rad etmaydi, aksincha, ko‘plik ana shu birlikning tajalliy maydoni sifatida tushuniladi. Natijada bilish jarayoni tashqi kuzatishdan ichki mushahadaga, nazariy idrokdan qalbiy ma‘rifatga tomon yuksaluvchi harakat shaklida talqin qilinadi. Bu hol al-Farg‘oniy merosining sharhchilik doirasidan ancha keng ekanini, islom metafizikasi va tasavvuf falsafasi tarixida mustaqil nazariy ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Shu asosda aytish mumkinki, Said ad-Din al-Farg‘oniy ta‘limoti Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tasavvufiy-falsafiy merosida borliq va bilish muammolarini uyg‘un holda yoritgan yetuk namunalardan sanaladi. Uning asarlari inson, olam va ilohiy haqiqat o‘rtasidagi munosabatni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Kelgusida al-Farg‘oniy qarashlarini Qunaviy, Ibn al-‘Arabiy va Jandiy merosi bilan qiyosiy o‘rganish, shuningdek uning istilohiy tizimini alohida tadqiq etish ushbu sohadagi ilmiy xulosalarni yanada boyitadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Richard Todd, *The Sufi Doctrine of Man. Šadr al-Din al-Qunawi's Metaphysical Anthropology*, Leiden, Brill, 2014.
2. William C. Chittick, "Farghani on Wahdat al-Wujud in the Four Journeys," *Journal of Sufi Studies*, 14, 2025.
3. Mohammed Rustom, "The Cosmology of the Muhammadan Reality," *Ishraq. Islamic Philosophy Yearbook*, 4, 2013.
4. Giuseppe Scattolin, "The Key Concepts of al-Farghani's Commentary on Ibn al-Farid's Sufi Poem al-Ta'yya al-Kubra," *Journal of the Muhyiddin Ibn 'Arabi Society*, 39, 2006.
5. Oliver Leaman, "Al-Farghani, Sa'id al-Din," *The Biographical Encyclopedia of Islamic Philosophy*, London, Bloomsbury Academic, 2015.
6. William C. Chittick, "Farḡani, Sa'id-al-Din Mohammad," *Encyclopaedia Iranica*, Vol. IX, New York, 1999.
7. Toshihiko Izutsu, *Sufism and Taoism. A Comparative Study of Key Philosophical Concepts*. Berkeley, University of California Press, 1984.
8. John Renard, *The A to Z of Sufism*. Lanham, Scarecrow Press, 2009.
9. Seyyed Hossein Nasr, *Knowledge and the Sacred*. Albany, State University of New York Press, 1989.
10. Sa'id ad-Din al-Farg‘oniy, *Mashariq al-darari sharh-i Ta'yya-yi Ibn al-Farid*.
11. Sachiko Murata, *The Tao of Islam. A Sourcebook on Gender Relationships in Islamic Thought*, Albany, State University of New York Press, 1992.

12. Mohammed Rustom, "The Cosmology of the Muhammadan Reality," *Ishraq. Islamic Mysticism and Sufism*, 2013.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).